



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 13 (952)
29-avgust, seshanba
2023-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
martdan chiqqan
boshlagan

XALQARO TAJRIBA ZAMON TALABI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Ta'lim sifatini oshirish, yuksak salohiyatli yosh avlodni yetishtirish mamlakat rivojlanishining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tajriba almashinuv va malaka oshirish kurslarining ahamiyati katta. Xususan, bu borada tibbiyot sohasida va oliygothlarida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Xitoyning BGI Group kompaniyasi bilan hamkorlikda "Tug'ma va irsiy patologiyalar tashxisi uchun zamonaviy texnologiyalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyasi o'tkazildi. Unda O'zbekiston, Rossiya va Xitoyning xalqaro darajadagi mutaxassisleri ishtirok etishdi.

Institutimiz professor-o'qituvchilarining ilmiy-amaliy jihatdan jahon andozalariga mos ravishda malakaga ega bo'lishlari uchun xalqaro aloqalar muntazam yo'lga qo'yilgan. Xususan, yaqinda ToshPTI klinikasi kardiokirurgiya bo'limi shifokori Qambarali Xaydarov, Anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasi assistentlari Otabek Fayziyev va

Gulchehra Ashurovalar Xitoy davlatidagi "Hunan children's hospital" shifoxonasida 15 kunlik stajirovka o'tib, yurtimizga qaytib kelishdi.

Hunan children's hospital Xitoydagi eng yirik shifoxonalardan biri bo'lib, deyarli barcha turdagi murakkab operatsiyalar o'tkaziladi. Mutaxassislarimiz ushbu shifoxonada stajirovka davomida ko'plab operatsiyalarda ishtirok etib, bemorlarni operatsiyaga tayyorlash, anesteziyani mukammallashtirish va bemorlarning operatsiyadan keyingi parvarishi haqida ko'plab yangi ma'lumotlarga ega bo'lib qaytishdi.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti delegatsiyasi Samarqand shahrida nufuzli xalqaro tadbirlarda – Turkiy dunyo tibbiyot Kongressi, Turkiy davlatlar tashkiloti sog'liqni saqlash vazirlarining yig'ilishi va O'zbekiston—Turkiya tibbiyot forumida faol ishtirok etdi.

Tadbir doirasida institut vakillari ishtirokchi mamlakatlarning nufuzli tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va klinikalari vakillari bilan B2B formatdagi muzokaralar o'tkazdilar. Ikki tomonlama muzokaralar natijasida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti hamda Bashkent universiteti klinikasi o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida mumerandum imzolandi.

Bu kabi ko'plab xalqaro tajriba almashinuvlar tibbiyot sohasida malakali shifokorlarning aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga yuksak hissa qo'shadi. Talabalarning dunyo tajribasini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganishida, albatta, ularning xorijiy tilni bilishlari muhim. Shu sababli Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 11-avgustdagi tegishli buyrug'i qabul qilindi. Unga ko'ra, 2023-2024-o'quv yilidan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida tahsil oluvchi, xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan talabalar rag'batlantirib boriladi. Ushbu o'quv yilining 1-sentyabrdan xorijiy tilni bilgan tibbiyot oliygohi talabasiga BXMning 3 barobar miqdorida stipendiya to'lanadi.

Bu esa talaba yoshlarning xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan intilishini keskin oshiradi. Natijada dunyo tibbiyotini chuqur o'rganadigan va xalqaro tajriba almashinuvlarda mukammal bilim o'zlashtiriladigan salohiyatli avlod shakllanadi. Bu qo'yilgan qadamlar, tikilgan sarmoyalar o'zini oqlab ta'lim sifatini oshirib, mamlakatimiz tibbiyoti rivoji uchun, aholi salomatligini mustahkamlash uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

SHAVKATLI UMR SOHIBI – “MEHNAT FAXRIYSI”



Shavkat Maxmudovich 1950-yilda Buxoro viloyati, Gijduvon tumanining Qorabog' qishlog'ida o'qituvchilar oilasida dunyoga kelganlar. Yoshliklarida otalari vafot etib, farzand tarbiyasi onalari zimmasiga tushgan. Ilmga chanqoq Shavkat ToshMI ning 1-kurs talabasiga aylanadi... Shunda Onajonising, birinchi ustozining quvonchlarini ichiga sig'mas, ularning umrlariga umr qo'shilganday edi go'yo. Bu esa Shavkatni quvontirar edi.

Institutni tugatish arafasida azim Buxoroga ishtiyoq bilan xizmat qilishga tayyorlanayotgan bir paytda Shavkatni akademik Sh.A.Alimov qabullariga chaqirtirib, o'pka jarrohligi reanimatsiya bo'limiga ishga olib qolishlarini aytdilar. U kishi nomidan vazir o'rinbosariga yo'llanma xatni olib borganda esa u yerdan rad javobini oladi. Qishloqqa ishga borish burchi edi, ammo uni shunday taniqli olim ilmiy ishga chorlaganidan g'ururlanib ketadi. ToshMI bitiruvchilarini ishga taqsimlash arafasida Shavkatni ham institutda ishlash uchun qoldirishadi.

Shavkat mehribon ustoz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, sobiq sog'liqni

Hayotini ilm-fan ravnaqi, shuningdek, yoshlarni jamiyat oldida mas'uliyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashdagi xizmatlari uchun Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Umumiy xirurgiya, operativ xirurgiya va topografik anatomiya kafedrasida professori, tibbiyot fanlari doktori Ahmedov Shavkat Maxmudovich "Mehnat faxriysi" (I darajali oltin yulduz) ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

saqlash vaziri H.Z.Zohidov bilan 1972-yili yangi ochilayotgan O'rta Osiyo Pediatriya tibbiyot institutiga yo'l oladi. Institutning tashkil bo'lishida faol qatnashgan Shavkat odam anatomiyasi kafedrasiga assistent etib tayinlanadi. Bitiruvchi uchun yangi hayot, mutlaq mustaqil, ilmiy, tashkiliy ishlar davri boshlanadi. O'sha davrda rektor professor V.M.Majidov rahbarligida bolalar yuqumli kasalxonasi o'rni-da 1972-yil yangi O'rta Osiyo Pediatriya tibbiyot institutida o'z faoliyatini boshlaydi.

Bu dargoh Shavkatni oddiy assistentdan akademikkacha tarbiyalaydi, o'stiradi. U 48 yildan beri faqat bir joyda ishlab, hattoki turmush o'rtog'ini ham shu yerdan topadi.

Pediatriya institutida ishga qoldirilgach, nomzodlik ilmiy ishi ustida ishlash, fakultet komsomol sekretari vazifasidagi yumushlari qizib ketdi. Ilmiy ishlari yarmidan oshganda, otasiday bo'lib qolgan ustoz professor H.Z.Zohidov to'satdan vafot etadilar. Bu haqida ular shunday eslaydilar: "Suyanib qolgan ekanman, tog'im yiqilganday bo'ldi, nazarimda..."

"Chaqaloqlarda chanoq-son bo'g'imi rivojlanishi, chiqishi" mavzusidagi dissertatsiyasini tugatishda Shavkatni ustoz professor A.P.Sorokin o'z laboratoriyasiga qabul qilib 4 oy ichida

himoyaga chiqishiga yo'l ochib beradi.

Ustozlarning ruhlantirishidan so'ng u doktorlik ishi ustida tadqiqot olib bora boshlaydi. Buning uchun 50 dan ortiq ilmiy maqola, 3 ta mualliflik guvohnomasi, vrachlar uchun 3 ta (tashxis uchun) uslubiy qo'llanma yaratilib, doktorlik dissertatsiyasi yakuniga yetkaziladi. Nihoyat, 1990-yilda qancha qiyinchiliklardan, ilmiy munozaralardan so'ng, dastlab 1-Moskva tibbiyot institutida, akademik M.R.Sapin rahbarligida, keyin Perm tibbiyot institutida muhokamadan so'ng Novosibirsk tibbiyot institutida doktorlik dissertatsiyasi himoyaga qabul qilinadi. Nihoyat, akademik Y.I. Borodin rahbarligidagi maxsus kengashda unga doktorlik diplomini berishga qaror qilinadi. Shundan so'ng u dotsentlikdan professorlikka, undan kafedra mudirligiga, kechki fakultetda dekanlik, yotoqxonalar bo'yicha dekanlik lovozimlarida faoliyat yuritdi va uzoq yillik mehnatlari munosib taqdirlandi.

Institut jamoasi zahmatkash ustoz Ahmedov Shavkat Maxmudovichni ushbu e'tirof bilan samimiy qutlab, umrlariga baraka, oilaviy to'kislik bo'lishini tilaydi.

Kavsar TURDIEVA

IKKINCHI BOR PREZIDENT STIPENDIANTI

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining tayanch doktoranti (PhD) Javohir Xalmuxamedov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibi bo'ldi.



Ziyoli oilada tug'ilib-o'sib, endigina 30 bahordan oshgan Javohir o'zining intiluvchanligi, ilmga chanqoqligi va mehnatsevarligi bilan bir qancha yutuqlarni qo'lga kiritib, tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

Xususan, 2010-yil Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga o'qishga hujjat topshirib yuqori ball bilan talabalik baxtiga musharraf bo'lgan Javohir Xalmuxamedov fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirib iqtidorli talabalar safidan joy oldi. Institut jamoat ishlarida faol qatnashgan Javohir 3-kursligida Atoqli olimlar stipendianti bo'ldi. Ustozlar mehri va e'tirofini qozongan Javohir 2016-yilda Toshkent pediatriya tibbiyot institutini imtiyozli diplom bilan tamom-

lab, ilm izlab yetuk shifokor bo'lish maqsadida magistraturada o'qishni davom ettirdi. Ilmni amaliyot bilan bog'lab o'rganishni taqozga etadigan shifokorlik sohasida o'qiyotgan Javohir Respublika Shoshilinch tibbiyot markazida ham amaliy faoliyat olib bordi. U o'z kasbiga muhabbati va el-yurtga nafi tegadigan yetuk kadr bo'lish orzusi tufayli o'qish va izlanishda sobitqadam bo'ldi va magistraturada o'qiyotgan davrda magistrantlar o'rtasida Prezident stipendiyasi sohibi bo'ldi. 2019-yilda "Shoshilinch tibbiy yordam" mutaxassisligi bo'yicha magistraturani bitirgan Javohir Xalmuxamedov 2019-yildan Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ kafedrasi assistenti sifatida faoliyat yurita boshladi. 2021-yildan 14.00.05 - ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorant sifatida ilmiy yo'lini boshlagan Javohir Xalmuxamedov bugunga kelib 30 dan ortiq ilmiy asarlar va maqolalar muallifidir. U

xorijiy stajirovka va kongresslarda qatnashib, ilmiy, tibbiy va pedagogik faoliyatini faol rivojlantirmoqda. Xususan, 2021, 2022, 2023-yillarda Avstriyada Ochiq tibbiyot instituti va uning hamkor institutlari Dyuk universiteti tibbiyot Markazi va Vena tibbiyot universiteti tomonidan tashkil etilgan "Oilaviy tibbiyot", "Pulmanologiya" va "Kardiologiya" yo'nalishidagi seminarida ishtirok etdi. 2022-yil Janubiy Koreyada an'anaviy koreys tibbiyoti xalqaro ta'lim va klinik mashqlar dasturining kursini muvaffaqiyatli tamomladi. Ilm izlashdan bir nafas bo'lsada to'xtamagan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining tayanch doktoranti (PhD) Javohir Xalmuxamedov 2023-yilda ikkinchi maraba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibi bo'ldi. Mehnatning tagi rohat deganlaridek Javohir bu kabi yutuqlari bilan ota-onasi va ustozlarining yuzini yorug' qilib olqishlarini olmoqda. Yosh tadqiqotchi shifokorning kelajakda buyuk olimlar safidan joy olishiga umid bildiramiz.

Institut jamoasi nomidan Javohir Xalmuxamedovni tabriklaymiz va yangi kasbiy cho'qqilarni zabt etishini tilaymiz!

Dilafro'z CHORIYEVA



HAYOTGA MUHABBAT



Hayot ko'chasida hamma ham birdek,
Baxtli va quvonchli yashay olmaydi.
Gohida bizlarga nafsimiz sherik,
"Ezgulik" degan so'z qalbdan qolmaydi.

Hayotning ko'chasi – sinovli dunyo
Shu joyda baxtingiz kulsin doimo.
Kimlar uchun hayot – boyliklar go'yo
Yaralmaganmiz-ku nafs uchun ammo.

Do'stginam, quloq sol, ushbu so'zimga
Hayotning har oni oltindan qimmat.
Uning har lahzasin qadriga yetmoq –
Asli men anglagan eng oliy hikmat.

ILTIJO

Mening vujudimda onam qoni bor,
Yuksak cho'qqilarni izlayman doim,
Otamning yuragi qalbi beg'ubor,
Ularni men uchun asra, Xudoyim!

Mening baxtim deya yelib yugurgan,
Yurak va borlig'im butun dunyoyim.
Dardlarin bildirmay jilmayib turgan –
Otamni men uchun asra, Xudoyim!

Onamning ko'zidan oqmasin yoshlar,
Yuzlarga minglarga kirsin iloyim.
Dilin og'ritmasin hech bag'ritoshlar,
Onamni men uchun asra, Xudoyim!

Mening kelajagim, baxtim ko'rsinlar,
Uchala opamning nurli kunlarin.
Doimo baxtiyor omon bo'lsinlar,
Shodliklar aritsin har on tunlarin.

Ko'kda nurin sochgan quyoshdir otam,
Onam esa sirdosh ko'kdagi oyim.
Mening orzularim tutmasin motam,
Biz uchun ularni asra, Xudoyim!

Muattar G'ofurova,
Pediatriya fakulteti 5-bosqich talabasi

BAXT



Asragaymiz biz vatanni,
Bermagaymiz yovlarga.
Fido qilib jonu tanni,
Ko'targaymiz boshlarda.

Qo'llarimiz xizmatdadir,
Yuragimiz to'la shahd.
Keksalar ham hurmatdadir,
Shuning o'zi katta baxt.

HAYOT


Hayot juda qiziq goh achchiq, shirin,
Ildam boraverar qilmasdan shafqat.
G'alaba quchadi mardlarning biri,
Irodasi kuchli yengadi har vaqt.

NEGA?

Nega ishlarimdan bo'lishmas mamnun,
Nega qarashimda yo'q ma'ni-mazmun?
Nega holatimni deyoilmam durust,
Nega yurakkinam urmoqdasan sust?
Nega yuzlarimda yo'qdir tabassum?
O'zinda kuch topishim uchun,
Bu negalarni o'zinga berdim,
O'tirgan joyimdan o'rnimdan turdim.
Maqsad rejalarini tuza boshladim,
Va ular tomonga qadam tashladim.

Dilorom Shodmonqulova,
ToshPTI 6-bosqich talabasi



 <p>PEDIATR</p> <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIVOT INSTITUTI MEHNTAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, D. Choriyeva, Nashr uchun mas'ul: M. Abduhamidova</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <p>"XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Qorasaray ko'chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3.</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
---	---	--	---